

ЎТМИШГА НАЗАР

1 МАХСУС СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР 1

LOOK TO THE PAST
SPECIAL ISSUE 1



ТОШКЕНТ-2023

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори,
профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари
университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Агзамова Гулчеҳра Азизовна
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори, доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика
университети

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори,
Тошкент кимё - технология институти

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори, профессор,
Қариш муҳандислик-иқтисодиёт
институти

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори, профессор
Қариш давлат университети

Махкамova Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент ахборот технологиялари
университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Джоробекова Айнуэр Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонкулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Расулов Абдуллажон Нуридиневич
тарих фанлари доктори, профессор
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори, профессор
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори, профессор,
Қозоғистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори, профессор,
Қозоғистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмудалиевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Алнева Лале
тарих фанлари доктори,
Озарбайжон давлат университети

Санпова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори,
Догистон мустақил университети


Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc)
Ўзбекистон Миллий университети

Одилов Абдор Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети

1. Валишер Элмуродович Абиров ЎЗБЕК ХАЛҚИНИНГ ШАКЛЛАНИШИ: ИЛМЙ-НАЗАРИЙ ЁНДАШУВЛАР ВА МУНОЗАРА.....	5
2. Жалолиддин Тухташевич Аннаев ЎРТА АСРЛАР ДАВРИ ТАРМИТА-ТЕРМИЗДА БУДДАВИЙЛИК.....	13
3. Феруза Парходовна Атамуратова ҚАДИМГИ ВА ЎРТА АСРЛАР ДАВРИДА ТАРМИТА-ТЕРМИЗ.....	21
4. Мунаввар Абдурашид қизи Атамирзаева МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА БУХОРО АМИРЛИГИДА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ МАСАЛАЛАРИНИНГ ТАДҚИҚ ЭТИЛИШИ.....	28
5. Рашидахон Муқимовна Аҳмедова ЎЗБЕКИСТОН ШИФОБАХШ ЖОЙЛАРНИ ТАДҚИҚ ЭТИШДА ИЛМЙ ЭКСПЕДИЦИЯЛАР ВА ИЛМЙ-ТАДҚИҚОТ ИШЛАРИНИНГ ФАОЛИЯТИ ТАРИХИ....	35
6. Рашидахон Муқимовна Аҳмедова ТУРКИСТОН ТАБИЙ РЕСУРСЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ИЛМЙ ЙЎЛГА ҚЎЙИЛИШИ.....	40
7. Дилафруз Аҳмедова Хусан қизи МАКТУБЛАР МАНБА СИФАТИДА.....	46
8. Oхunjon Axmat o'g'li Boboqulov MUSTAQIL KONGO DAVLATINING SSSR BILAN DIPLOMATIK ALOQALARI (davriy matbuot gazetalari tahlili asosida).....	53
9. Феруза Хаятовна Бобожонова БУХОРОДА МАКТАБ ТАЪЛИМ ТИЗИМИ ТАРИХИ (XIX АСР ОХИРИ-XX АСРНИНГ БИРИНЧИ ЯРМИ).....	58
10. Omon Olimjonovich Gadayev MUSTAQILLIK YILLARIDA SAMARQAND VILOYATINING DEMOGRAFIK TARIXI.....	65
11. Дилорам Зияева МАРКАЗИЙ ОСИЁДА ЎРТА АСРЛАРДА ЮЗ БЕРГАН УЙҒОНИШ. ВАТАНДОШЛАРИМИЗНИНГ ЖАҲОН ТАМАДДУНИГА ҚЎШГАН ҚИССАСИ.....	71
12. Farxod Sobirovich Ziyayev TURKISTONDA MUSTABID SOVET TUZUMIGA QARSHI QUROLI HARAKAT.....	77
13. Ubaydulla Mamat o'g'li Ismoilov SUYURLITEPA YODGORLIGI O'RNIDAGI SHAHARNING TARIXIY NOMI XUSUSIDA MULOHAZALAR.....	84

14. Baxtiyor Safarovich Nazirov JADID VAKILLARINING AHOLINI SOG‘LOMLASHTIRISH BORASIDAGI QARASHLARI.....	109
15. Рустам Абдуваид ўгли Неъматов ТУРК ХОҚОНЛИГИ ДАВРИДА ХОРАЗМ ВОҲАСИ ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ ТАРИХИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ.....	114
16. Дилорам Сангирова ЎРТА АСР ДАВЛАТЧИЛИК РАМЗЛАРИ СЎЗ ВА ТАСВИРДА.....	120
17. Lyudmila Mixaylovna Sokolova ANDIJON, NAMANGAN, FARG‘ONA VILOYATLARIDAGI HUNARMANDLAR USTOZIGA BAG‘ISHLANISH MAROSIMINING IBTIDOSI HAQIDA.....	130
18. Фазилат Нормуродовна Тургунова СИРДАРЁ ВИЛОЯТИ МУСИҚАЛИ ДРАМА ТЕАТРИ ФАОЛИЯТИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ.....	142
19. Баходир Босимович Тўйчибоев ҚОЯТОШ ЁДГОРЛИКЛАРНИ САҚЛАШ ВА ФОЙДАЛАНИШ MASALALARI ХУСУСИДА.....	147
20. Раъно Нортўхтаевна Тўхтаева ЎЗБЕКИСТОНДА ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИДАН Кейинги ИҚТИСОДИЙ ҲАЁТ...154	154
21. Dilshod Inomjon o‘g‘li To‘xtasinov NORIN VA QORADARYO ORALIG‘I HUDUDLARINING MANBASHUNOSLIK TAHLILI VA UCHTERA-2 YODGORLIGINING ARXEOLOGIK JIHATDAN O‘RGANILISHI.....	159
22. Mansur Xayrullayevich Fayzullayev XIX АСР ОХИРИ – XX АСР БОШЛАРИДА ТУРКИСТОННИНГ ИЖТИМОИЙ- ИҚТИСОДИЙ ҲАЁТИГА ДОИР MASALALARНИ ЎРГАНИЛИШИ ТАРИХШУНОСЛИГИ.....	170
23. Rashid Mamatkulovich Xolmurodov TARIXIY O‘LKASHUNOSLIK FANINI O‘RGANISHDA SHAROF RASHIDOV MUZEYI MANBALARIDAN FOYDALANISH.....	177
24. Tuyg‘un Rajabovich Ernazarov TURKISTON GENERAL GUBERNATORLIGIDA BOJXONA XIZMATINING TASHKIL ETILISHI VA UNING FAOLIYATIDAN LAVHALAR (Rossiya imperiyasi va Xitoy aloqalari misolida).....	182
25. Бахтиёр Эргашевич Юлдашев, Светлана Владимировна Темирова ЗАРДУШТИЙЛИКНИНГ МУҚАДДАС КИТОБИ “АВЕСТО”ДА СИЁСИЙ-ҲУҚУҚИЙ ҚАРАШЛАР.....	187
26. Алишер Яркулов АРХЕОЛОГИЯ МЕРОСИ ОБЪЕКТЛАРИНИ МУЗЕЙЛАШТИРИШ ТУРЛАРИ ВА УСУЛЛАРИ ХУСУСИДА.....	195
27. Abdurahmonova Nodiraxon Xusnutdinovna HUQUQIY MADANIYAT VA DEMOKRATIYA: IJTIMOIIY FALSAFIY YONDASHUVLAR VA KONSEPSIYALAR.....	202



Ubaydulla Mamat o'g'li Ismoilov
 O'zR FA Tarix instituti tayanch doktoranti
 E-mail: ubaydulla.ismoilov.94@mail.ru

SUYURLITEPA YODGORLIGI O'RNIDAGI SHAHARNING TARIXIY NOMI XUSUSIDA MULOHAZALAR

For citation: Ubaidulla Ismailov, CONSIDERATIONS ON THE HISTORICAL NAME OF THE CITY AT THE SITE OF THE SUYURLITEPA MONUMENT. Look to the past. 2023, Special issue 1, pp.84-108

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.8072213>

ANNOTATSIYA

Maqolada Toshkent viloyati, Ohangaron tumani, Qorabuloq qishlog'i hududida joylashgan Suyurlitepa yodgorligida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar, ushbu hududdan topilgan tarixiy ashyolar, tadqiqot natijalari, Qadimiy Iloq mulkligining shaharlari haqidagi manbalar tahlili asosida ularning tarixi yoritib berilgan. Shuningdek, o'rta asrlardagi Ohangaron havzasida joylashgan shaharlarning tarkibiy qismlari, ulardan o'tgan savdo yo'llari, mazkur shaharlarda bog'dorchilik taraqqiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy hayotning rivojlanib borishi, shaharlarning paydo bo'lishi va tanazzuli haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Tunkat, Suyri, Alaxjos, Namudlig', Ovjaz, ibn Xavqal, Ishtahriy, Muqaddasiy, brovka, transheya, tarixiy topografiya.

Убайдулла Исмаилов,
 докторант Института истории АНРУз
 электронная почта: ubaydulla.ismoilov.94@mail.ru

СООБРАЖЕНИЯ ОБ ИСТОРИЧЕСКОМ НАЗВАНИИ ГОРОДА НА МЕСТО ПАМЯТНИКА СУЮРЛИТЕПА

АННОТАЦИЯ

В статье история археологических исследований, проведенных в памятнике Суюрлитепа, расположенном на территории села Карабулок Охангаронского района Ташкентской области, исторические объекты, найденные на этой территории, результаты исследований, анализ источников. о городах свойства Древнего Илока поясняется. Также описываются составляющие города, расположенные в бассейне Охангарона в средние века, торговые пути, которые проходили через них, развитие садоводства в этих городах, развитие общественной и экономической жизни, возникновение и упадок городов.

Ключевые слова: Тункет, Суйри, Алахжос, Намудлыг, Овжас, ибн Хаукал, Истахри, Мукаддасий, бровка, траншея, историческая топография.

Ubaidulla Ismailov,Doctoral student of the Institute of History
of the Russian Academy of Sciences
E-mail: ubaydulla.ismoilov.94@mail.ru**CONSIDERATIONS ON THE HISTORICAL NAME OF THE CITY AT THE SITE OF
THE SUYURLITEPA MONUMENT****ABSTRACT**

In the article, the history of the archaeological research conducted in the Suyurlitepa monument located in the territory of the village of Sanam, Ohangaron district, Tashkent region, the historical objects found in this area, the results of the research based on the analysis of the sources about the cities of the Ancient Ilak property. Also, the components of the cities located in the Ohangaron basin in the Middle Ages, the trade routes that passed through them, the development of horticulture in these cities, the development of social and economic life, the emergence and decline of cities are described.

Index Terms: Tunkat, Suyri, Alakhjos, Namudlyk, Yahudlyk, Avjas, Ibn Hawqal, Ishtahri, Al-Mokaddasi, sod line, trench, historical topography.

1. Dolzarbli:

Qurama va Chotqol tog'lari bilan o'ralgan Ohangaron vodiysi azaldan insoniyat qo'nib topishi uchun qulay makonlardan biri hisoblangan. Ilk o'rta asrlarga kelganda bu hududda bir qancha shaharlar qad ko'tardi. Ushbu shaharlarning paydo bo'lishi, tanazzuli, iqtisodiy taraqqiyoti, savdo yo'llari taraqqiyotida tutgan o'rni, ayniqsa, ularning tarixiy lokalizatsiyasi masalasini yoritish uchun yozma manbalar yetarli emas. Shuning uchun ushbu hududdagi shahar xarobalarida arxeologik tadqiqotlar olib borilishi dolzarb hisoblanadi.

2. Metodlar va mavzuning o'rganilganlik darajasi:

Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar-tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yozilgan bo'lib, unda Ohangaron vodiysi hududidagi ilk va o'rta asrlarga oid shaharlar, ularning tarixiy o'rni masalasi moddiy va yozma manbalar asosida tahlil qilingan.

Qadimiy Turkistonning shimolida tog'-kon ma'danlariga boy Ohangaron vodiysi joylashgan. Hozirda bu zaminning tub joyli, asl farzandlari mehnatkash, bag'rikeng, mehmondo'st o'zbek xalqining qurama urug'lari bo'lib, ularning ajdodlari yaratgan boy madaniy me'ros jahon tarixining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Manbalarda bu hudud Iloq, Imloq degan nomlar bilan tilga olinadi [1,16; 2,117; 3,72; 4,64]. X asr yozma manbalarida Iloq davlatining poytaxt shahri Tunkat shahri ekanligi haqida qayd etilgan. O'tgan asrning 20 – 30-yillarida Mashkovsev bergan ma'lumotlarga asoslanib [7,110-111], arxeolog M.E. Masson Ohangaron hududlarini tadqiq etadi va Tunkat shahrini Obiz qishlog'i yonidagi shahar xarobalarining o'rnida degan fikrni ilgari suradi [8,73]. Shundan so'ng XX asr 70-yillarning boshlarida Toshkent vohasi hududlarini ancha keng o'rgangan akademik Y. F. Buryakov Tunkat haqida "maydoni 5 gektar, beshburchak shakldagi ark shaharning shimoliy qismida qad ko'targan. Arkning shimoliy qismidagi mustahkam devorlar Ohangaron qirg'oqlaridagi tepaliklar shaklini takrorlaydi. Arkda ikkita katta darvoza bo'lgan. Bittasidan janubga, rabotga chiqilgan, ikkinchisidan esa sharqqa tutashib ketgan va umumiy devorga ega bo'lgan shahristonga chiqilgan. Shahristonning maydoni 112,5 gektar. Shimoliy qism, nisbatan mustahkam bo'lib, uning devorlari ark devorlarini davom ettiradi, – degan fikrlarni bildirib o'tadi [9,30].

Lekin so'nggi yillarda bir qator olimlar tomonidan Iloqning poytaxt shahri Suyurlitepa yodgorligi o'rnida ekanligi haqidagi yangi xulosalar o'rta tashlanmoqda. Bu fikr ilk bor arxeolog S. Ashirov tomonidan tilga olinadi [10,5; 11,355-362]. So'nggi yillarda o'z shogirdlari bilan Ohangaron hududlarida arxeologik tadqiqotlar olib borayotgan akademik Ahmadali Asqarov hamda Behzod Isabekov kabi olimlar ham Iloqning poytaxti o'rnini Ohangaron tumani Sanam MFY, Qorabuloq QFY dagi Suyurlitepa yodgorligi bilan belgilashadi [12,345-353]. Munira Xatamova, G'aybulla Boboyorov kabi tarixchi olimlar ham o'z tadqiqotlarida Iloqning poytaxti masalasiga

munosabatini bildirib o'tishgan. Xususan, M. Xatamova o'rta asr yozma manbalarida Tunkat qoyali tog' ustida joylashganligi haqidagi ma'lumot asosida uning xarobalari Suyurlitepa yodgorligi o'rnida bo'lishi mumkinligi haqidagi fikr haqiqatga yaqin kelishi haqida aytib o'tadi [13,173]. G'aybullar Boboyorov esa Xitoy manbalarida tilga olingan Dunsze yoki Tunsze Iloqning markaziy shahri Tunkatning o'zginasidir degan [14,98]. O'lka tarixi bilan shug'ullangan mahalliy tarixchi, filologiya fanlari doktori, professor Isomiddin Yormatov ham bu masalada o'z fikrini bildirib, arab tarixchisi Ibn Havqalning asarida Banokat bilan Tunket, Binkat bilan Tunket yoki Abrlig' bilan Tunket orasidagi farsax hisobidagi masofa Obizga emas, Suyritepaga to'g'ri kelishi haqida yozib o'tgan [15,112].

3. Tadqiqot natijalari:

Ohangaron vodiysini tabiiy-geografik joylashuvi va odamzod tomonidan o'zlashtirilishiga ko'ra, uch qismga, ya'ni Yuqori Ohangaron, O'rta Ohangaron va Quyi Ohangaron vodiysiga ajratib o'rganish mumkin. Bunda ushbu hududdan oqib o'tuvchi Ohangaron daryosiga nisbat berilgan. U ikki tomondan Qurama hamda Chotqol tog'lari bilan o'rab olingan. Bu ikki tog'lardan hosil bo'lgan daryo, tog'oldi hududlarga oqib chiqqandan keyin dehqonchilik uchun qulay bo'lgan sug'oriladigan vohani tashkil qiladi. O'rta asrlarda Iloq Chochning uzoq vaqt ajralmas bir qismi hisoblangan. Manbalarda ham ikkisi yonma yon tilga olinadi. Iloq ma'lum muddat davomida Chochdan mustaqil mulklik sifatida ham faoliyat ko'rsatgan.

10 asr yozma manbalari Shosh va Iloq 50 ga yaqin shaharlardan iborat ekanligi haqida ma'lumot beradi [3,73]. Ulardan 17 tasi Iloq shaharlari, qolganlari esa Shosh shaharlari deb tilga olingan. Iloq mulkligining hududida bugungi kunda Toshkent viloyatining Ohangaron ("temirchilar shahri"), O'rta Chirchiq, Bo'ka, Angren, Nurafshon, Piskent, Olmaliq kabi tuman va shaharlari joylashgan. (1-rasm)

Iloq shaharlaridan bir qanchasining tarixiy o'rni masalasi aniq o'z yechimini topmagan. Shu xususda o'tgan vaqt davomida bir qancha tadqiqotlar amalga oshirildi, lekin ular bu muammoni yechimi uchun yetarli emas [5,8].

Ohangaron vodiysining qadimgi yirik shaharlari tarixiy topografiyasi bilan tanishar ekanmiz, Xitoydan boshlangan Buyuk ipak yo'lining bir shahardan ikkinchi shaharga olib boruvchi masofa oralig'ida tog' bo'lsa, u holda savdo karvonlari qaysi bir dovon orqali o'tishi, agar keng cho'l-dasht bo'lsa, karvon yo'li bo'ylab bir yoki undan ortiq sardobalar barpo etilishini hayot taqozo etgan. Qadimgi Farg'ona vodiysidan Choch vodiysiga olib o'tgan yo'l Kandir dovoni orqali o'tgani tarixiy manbalarda o'z aksini topgan. Xususan, Temuriy shahzodalardan Zahiriddin Muhammad Bobur ham amakisining yoniga, Toshkentga kelganida yoki Farg'ona vodiysiga qaytishda aynan Kandir dovoni orqali o'tganligini o'z asarida yozib qoldirgan [6,47]. Akademik A.Asqarov boshliq arxeologik guruhning bu hududda olib borgan izlanishlari davomida ma'lum bo'ldiki, Turkiston tog' tizmasida joylashgan Kandir dovonning egarsimon (sedlavina) nuqtasidan Ohangaron vodiysi tomon Kandirsoy suv yo'li o'ng sohiliga bo'ylab qadimda Kandirdovon nomi ostida savdo karvon yo'li o'tgan. (2-rasm) Bu yo'l Ohangaron daryosi chap sohiliga qadar taqalib, g'arbga tomon buriladi, daryo yoqalab Qorabuloqqa yetganda, uning suv zaxirasi asosida qirlik ustida yirik shahar paydo bo'ladi. Bu shahar qadimda qaysi bir nom bilan atalgani haqida aniq xulosa aytish mushkul. Ammo, shu xususda bir qator dalillarni ko'rib chiqamiz.

Suyurlitepa yodgorligi Ohangaron daryosining chap sohilida, Qurama tog'larining shimoliy etagida, bugungi Sanam qishlog'idan 2 km sharqda, Olmaliq shahrini Angren shahri bilan bog'lovchi avtomobil yo'li yoqasida joylashgan.

2022-yilning bahor-yoz oylari davomida muallif tomonidan Suyurlitepa yodgorligida arxeologik tadqiqotlar olib borildi. Bunga qadar akademik Ahmadali Asqarov boshchiligidagi arxeologik guruhlar 2012-2015-2020-yillarda ushbu shahar xarobalarida qazishma ishlarini amalga oshirishgan [16,97]. Xususan, 2012-yilda yodgorlikning shimoli-g'arbiy chekkasidagi eng baland tepalikda qazishma ishlari olib borilgan. U yerdan chiqqan qalin kul qatlamlari, xo'jalik o'ralari, inshoot qoldiqlari va boshqa dalillarga asoslanib, ushbu tepalik shaharning diniy markazi hisoblangan ibodatxona o'rni ekanligi haqidagi xulosalar berilgan [16,98]. (3-rasm)

2020-yil yodgorlikning ark (hukmdor qarorgohi) deb taxmin qilingan qismining shimoli-g'arbiy burchagidan 15X20 metr o'lchamdagi hududda qazishma ishlari olib borildi. Qazishmalar natijasida bu joy arkning shimoli-g'arbiy qismidagi minoralardan biri ekanligi isbotlandi [17,15]. Yodgorlikning yoshini aniqlash maqsadida uzunligi 50 m, eni 5 metr bo'lgan transheya qazib tushilgan bo'lib, uning yuqori qatlamlari milodiy IV asrga oid, eng quyi qatlamlari esa XII asrga oid degan xulosaga kelingan. (4-rasm)

Sanab o'tilganlardan oldin bunday keng ko'lamda arxeologik qazishmalar amalga oshirilmagan. Toshkent vohasini arxeologik jihatdan o'rganish ishiga eng ko'p hissa qo'shgan arxeolog, akademik Y.F.Buryakov asarlarida ham Suyurlitepa o'rta asr shahar yodgorliklari qatorida sanab o'tib ketilgan, xolos [18,90; 19,114-115]. Mustaqillik yillarida Toshkent shahri va viloyatining tarixiy-arxeologik xaritasi va turistik ziyoratgohlari katalog-albomlarida ham ushbu yodgorlik haqida to'liq bo'lmagan chalkash ma'lumotlar berilgan [20,48]. Yodgorlikning nomi ham turli adabiyotlarda turlicha (Munchoqtepa [21,35], Saviltepa [21,80], Suyritepa [4], Suyartepa, Suyurtepa [8,80]) yozilgan. Bu nomlar, taxminimizcha, so'nggi o'rta asrlar yoki yangi davr boshlarida paydo bo'lgan. Bularning ichida eng haqiqatga yaqini Suyritepa shakli hisoblanadi. Suyri so'zi "baland", "tik", "yuqori" degan ma'nolarni anglatadi. Bu, albatta, yodgorlikning eng baland, ibodatxona qismi joylashgan tepalikka nisbatan ishlatila boshlangan va bugungi kunda butun yodgorlik Suyurlitepa degan nom bilan yuritiladi. (5-rasm)

Ta'kidlash lozimki, Toshkent vohasidan topilgan shahar tipidagi yodgorliklarining umumiy maydoni asosan o'rtacha 10-20 gektarni tashkil etadi.

Suyurlitepa yodgorligining umumiy maydoni Google earth dasturidagi taxminiy hisobda 100 gektardan oshiq bo'lib, hududining kattaligi jihatidan Toshkent vohasining Qanqa (Xarashket) (160 ga), Tunkat (120 ga), Banokat (Shohruxiya) shaharlaridan keyingi uchinchi yodgorlikdir. Ekspeditsiyaning oldiga qo'ygan asosiy vazifalari yodgorlikning tarixiy topografiyasini aniqlash, shaharning vag'nze (diniy hokimyat) mulki deb talqin qilingan shimoliy-g'arbiy qismidagi hududni o'rganish, shaharning ichki va tashqi (savdo) yo'llarini o'rganish va shahar topografiyasidagi o'rnini aniqlash, shahar tegrasidagi oyektlarni aniqlash (rabod va qabriston) bo'ldi. Tarixiy topografiya deganda, yodgorlikning qaysi qismida qadimgi shaharning qaysi bir tarkibi joylashgan va ular qaysi ob'ektlardan iboratligi tushuniladi. Odatda arxeologiya fanida shahar haqida so'z yuritilganda asosan uchta omil e'tiborga olinadi. Birinchisi, ark (arki a'lo, ko'xandiz) – shaharning hukmdor turgan markaziy qismi, ikkinchisi, ark atrofini o'rab olgan asosiy aholi turar-joylari – shahriston, uchinchisi shaharning tashqi qismi – rabot. Biz o'rganayotgan Suyurlitepa yodgorligida qadimgi va o'rta asr shaharlariga xos bo'lgan mana shu uchta bosh omil joy relefida yaqqol namoyon bo'ladi.

Yodgorlikning stratigrafiyasi deganda ushbu yodgorlik ajdodlarimiz tomonidan qachondan o'zlashtirila boshlandi, ya'ni aholi qachondan shu hududga kelib joylashdi va nima maqsadda o'zlashtirila boshlangan degan masalalarga aniqlik kiritish tushuniladi.

2022-yilgi tadqiqotlar Vag'nze mulkining janubi-sharqiy tomonidagi nisbatan balandroq tepalik (minora, burj deb taxmin qilingan)ni 10X10 m o'lchamda qazib ochishdan boshlandi. Qazishmaning markaziy qismida sharq-g'arb yo'nalishida eni 80 sm bo'lgan brovka[58] qoldirildi. Ob'ektning eng baland joyiga qoziq qoqilib, reper (dastlabki) nuqta belgilandi. Kelgusida qazishma maydoni topilgan xonalarga mos ravishda to'rt tomonga qarab kengaytirib borildi va so'ngda maydon 23X23 metrgacha yetkazildi.

2022-yilgi qazishmalar davomida jami 4 ta asosiy xona va 8 ta yordamchi xo'jalik xonalari ochib o'rganildi. 1-va 3-asosiy xonalarga sharq tomondan kirilgan. 2- va 4-asosiy xonalarga esa g'arb tomondan kirilgan. Asosiy xonalar devorlarining qalinligi 3,5 metrni tashkil qiladi. Yordamchi xo'jalik xonalari devorining qalinligi esa 50 sm.ni tashkil qiladi. Ushbu maydonda ochilgan bino g'arb tomondagi tepaliklar bilan katta yo'lak orqali bir-biriga tutashib ketgan. Hamma tepaliklar birlashib o'rtada keng, tekis maydonni o'rab turadi. (6-rasm)

Binoni qurishda paxsa va xom g'ishtlardan foydalanilgan. Xom g'ishtlarning o'lchamlari 22.5X11X35 va 51-52X24-25X9-12 sm. ni tashkil etadi. Kattaroq o'lchamdagi g'ishtlar qadimiy Qanqa shahrining ark qismida, ilk o'rta asrlarga oid qatlamlaridan [22,65; 23,128], Panjikent shahri hududidan ham topilgan [24,37]. Bunday g'ishtlardan foydalanib inshootlar qurish ilk o'rta asrlarda

keng tarqalgan [25,122]. Ko‘rinadiki, ushbu inshoot ilk o‘rta asrlarda barpo etilgan. Buni qazishma maydonidan topilgan turk xoqonligi davriga oid Choch tangasi ham isbotlaydi. Uning avers qismi ancha yomon ahvolga kelib qolganligi tufayli, undagi belgi va yozuvlarni aniqlash mushkul, lekin revers tomonida Choch hukmdorlarining an‘anaviy ayrim tamg‘asi ham sug‘d yozuvidagi so‘zlar aniq bilinib turadi.(7-rasm)

Bino arkali qilib qurilgan bo‘lib, uning izlari qazishma maydoni kesmasida o‘z aksini topdi. Arkali qilib inshoot ko‘tarish ham ilk o‘rta asr qurilish an‘analariga xos bo‘lib, bunday an‘ana Suyurlitepadan tashqari Toshkent vohasi hududidagi Qanqa [22,11], Shoshtepa [26,11], Yunusobod Oqtepsi [27,24-31], Mingo‘rik [28,84], Farg‘ona vodiysidagi Chilxujra [25,45] kabi shahar yodgorliklarida ham uchratilgan. Ushbu binodan keyinchalik, Turk xoqonligi, Arab xalifaligi, Somoniylar sulolasi boshqaruvi, Qoraxoniylar, Qoraxitoylar shuningdek Xorazmshohlar sulolasi boshqaruvi davrlarida ham mahalliy aholi yoki ko‘chib kelib o‘rnashgan etnik qatlamlar tomonidan foydalanilib kelingan.

Arxeologik qazishmalar natijasida, bu yerdan Turk xoqonligi, Somoniylar, Qoraxoniylar va Mo‘g‘ullar bosqini davriga oid boy ashyolar, tangalar, sopol idishlar (sirlangan va sirlanmagan laganlar, kosalar, xumlar va hakazolar), kamon o‘qining uchlari, shisha idishlar, turli xil taqinchoqlar, suyakdan qilingan taroqlar va boshqa ko‘plab tarixiy buyumlar topildi.

Qazishma natijasida ochilgan har bir xonada reper (boshlang‘ich) nuqtadan 3 metr pastlikda kul to‘shalgan pol sathi aniqlandi. Reperdan shimoli-sharqiy tomonda joylashgan, usti arkali qilib yopilgan xonani kengligi va balandligi sababidan, shartli ravishda markaziy xona deb nomladik. Markaziy xonaning brovkaga yaqin qismida kul qatlami orasidan suyakdan qilingan taroq va uning sharq tomondagi paxsa devor yonidan sopol dasturxonning sinib ketgan yarim qismi uchratildi. Dasturxonning qolgan qismi markaziy xonaning shimol qismidagi devor yonidan topildi. Dasturxonning diametri 40 sm.ni tashkil qiladi. Qo‘lda yasalgan, tagida 3 ta oyog‘i bor. Bunday sopol buyumlar asosan o‘rta asr madaniy qatlamlarida aniqlangan [29,141]. Tadqiqotlarga qaraydigan bo‘lsak, dasturxonlar Farg‘ona, Yettisuv va Toshkent hududlarida joylashgan 7-12-asrlarga oid yodgorliklarda ko‘p uchratilgan [30,212; 31,119-128; 32,209]. Dasturxonlarning kelib chiqishi Markaziy Osiyo hududlariga borib taqaladi. Arxeologlardan Sokolovskaya, Bogomolov, Xristolar sopol xontaxtalar xususida yozishgan [33,38]. Ularning yozishicha, shunday dasturxonlar milodiy 7-8-asrlar Sug‘d yoki Samarqand hududida ko‘plab topilgan. Ular kichik hajmli, qo‘pol va qo‘lda yasalgan. Keyinchalik 8-9-asrdan boshlab sopol dasturxonlar kulolchilik charxida yasala boshlangan. Vaqtlar o‘tib dasturxonlar Yettisuv va Farg‘ona hududlarida ham keng tarqaladi. Uning tarqalishi sug‘dlar migratsiyasi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. O‘rta asrlarda sug‘dlarning bir qismi Sharqiy Turkiston va Janubiy qozog‘iston hududlariga ko‘chib o‘tishdi va o‘zlari bilan birga kulolchilik an‘analarini ham olib boradi. Natijasda kulolchilikda simbioz jarayonida sodir bo‘ldi [34,63]. Hunarmandlar asosan qo‘lda yasalgan dasturxonlarga o‘z qo‘llari bilan bezaklar berishgan. Suyurlitepadan topilgan sopol dasturxonning o‘ziga xos tomonida shundaki, u qo‘lda yasalib, orqa tomoniga hunarmand tomonidan besh qirrali yulduzcha tasviri tushirilgan. Besh qirrali yulduzcha fanda pentogramma yoki pentakl deyiladi(8-rasm). Islom dini bunga o‘xshash belgilar va ramzlardan holi din hisoblanadi. Chunki, Islom xudoning ekvivalenti sifatida sig‘inish mumkin bo‘lgan ramzlardan foydalanish taqiqlanadi [35].

Ayrimlar besh qirrali yulduzni musulmonchilik an‘analari, ya‘ni Islomning 5 arkoni bilan bog‘lashadi: imon, namoz, zakot, haj va ro‘za [35]. Lekin musulmonchilik an‘analarida 5 qirrali yulduzcha yarim oy belgisi bilan doim yonma-yon keladi (9-rasm). Unda 5 qirrali yulduzchaning yakka holda kelishi nima bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin?

Ayrim adabiyotlarga ko‘ra pentagramning nuqtalari yer, olov, suv, havo va ruhni anglatadi va ko‘p hollarda himoya belgisi sifatida foydalanilgan [35].(10-rasm)

O‘rta asrlardagi Sulaymon matnlarida "Sulaymon muhri" nomi ostida pentagrammaga katta ahamiyat berilgan. Isroillik tarixchi olim Gershom Skolem shunday deb yozadi: "Arab sehdida "Sulaymon muhri"dan keng foydalanilgan, lekin dastlab yahudiylar tomonidan kamroq foydalanilgan. Gektagram va pentagram bir birining o‘rnida ham qo‘llanilishi oddiy holat hisoblangan. "Sulaymon matnlari"ning lotincha shakllarida "pentakulum" so‘zi Sulaymon muhri

bilan bog'liq bo'lgan barcha dumaloq belgilarga ishora qilish uchun ishlatilgan, garchi ularning aksariyatida pentagram bo'lmasa ham [36].

“Sulaymon kaliti” deb nomlangan yahudiylar manbasida ham o'nlab 5 qirrali yulduzchalar, pentakllar tasvirlangan [37].

Pentagram odatda inson shakli bilan bog'liq. Biroq, ba'zida bu Masihning beshta yarasi bilan bog'liq: uning teshilgan qo'llari va oyoqlari, shuningdek, askarning nayzasi bilan uning yon tomonidagi teshilish. Bu tushuncha 16-asrda Valeriano Balzani tomonidan yaratilgan “Ieroglif” asarida o'z aksini topgan [38].

Yahudiy jamoalari 5 qirrali yulduzni Muso payg'ambarga tushirilgan 5 kitobdan iborat Injilning birinchi 5 ta kitobi bilan bog'lashadi [39].

O'rta asrlarda alkimyogarlik degan nom bilan tanilgan bir kasb bo'lib, bu kasb vakillari har qanday ma'danni oltinga aylantirish yo'lida izlanganlar va o'rta asrlar ilm faniga u yoki bu darajada o'z xissalarini qo'shishgan. O'rta asrlar sharq va g'arb dunyosida bu kasb bilan asosan yahudiylar jamoalari shug'ullanishgan [40,634]. Bu hududdan bir qancha dori-darmon va suyuqliklar saqlash mumkin bo'lgan shisha idishlar topilganligi ham, balki, Suyurlitepa yodgorligi o'rnidagi shaharda yahudiylar jamoasi ham istiqomat qilgan bo'lishi mumkin degan taxminni ilgari surishga imkon beradi.

Xonalardan paxsa blokli platformani o'yib ochilgan jami 9 ta xo'jalik o'ralari aniqlandi. O'ralardan bittasi to'g'ri to'rtburchak, qolganlari esa aylana shaklga ega. Ulardan 20 turdagi shisha idishlar, xususan, shisha laganlar, vazalar, bokallar va tabiblar tomonidan giyoh solish uchun ishlatilganligi talqin qilinayotgan kichik, nozik ko'rinishga ega shisha idishlar va hakazolar topildi. Bunday turli-tuman shisha idishlarning topilishi bu hududlarda bir vaqtlar shishasozlik yuksak darajaga yetganligining isbotidir. (11-rasm)

To'g'ri to'rtburchak shaklidagi o'ra markaziy xonaning sharqiy tomonidagi xo'jalik xonasidan topildi. Uning ichida kamon o'qining uchi, sirlangan sopol idish bo'laklari, sirlanmagan naqshli idish bo'laklari va boshqalar topildi. Ularning ichida bir tosh bo'lagi ahamiyatga molik. Uning bir tomoniga xoch belgisi, ikkinchi tomoniga esa, 6 qirrali yulduzcha tasviri o'yib tushirilgan. (12-rasm)

Hozirda Xoch xristianlik dinining asosiy ramzi hisoblanadi. Lekin bu belgining kelib chiqish tarixi, xristianlik dinidan ancha oldinga borib taqaladi.

Shu bilan birgalikda xoch tasvirini ilk o'rta asr Choch tangalarida ham ko'p uchratish mumkin [41,9-63]. Turkiy xalqlarda ham bu belgi qabul qilingan bo'lib, u taqdir chambaragini anglatadi. (13-rasm)

6 qirrali yulduzchaning o'yib ishlangan ramzi esa, Dovud yulduzi hisoblangan 6 qirrali yulduz bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bu belgi fanda hectogram deb ataladi. Bu belgi bugungi kunda yahudiy xalqlarining asosiy diniy belgisi hisoblanadi.

O'ralardan birida noyob laganlar ham uchratildi. Ularning sirtiga oq rang berilib, sirlangan. Laganlardan birida arab alifbosining kufiy xatida البركة لصاحبه كل العمر so'zlari yozilgan. Yozuvlar o'ng tomondan o'qilganda al'umru (umr), al-barakatu (baraka), li soohibihi (egasi uchun, egasiga) so'zlari ma'lum bo'ldi. Afsuski, lagan butun holatda emas. Qolib ketgan 1-2 so'zni aniqlashning imkoni bo'lmadi. Bunday idishlar X-XI asrlarda yurtimizda hukm surgan somoniylar sulolasi davriga oid bo'lib, bu jumlar ushbu davrda laganlar ichiga tilaklar yozish an'anaga aylanganligini ko'rsatadi. Laganlardan yana bittasining ichki qismida tovus qushiga o'xshab ketadigan qush tasvirlangan bo'lib, u tumshug'ida gul tutib olgan. Lekin Islom dini keng ildiz otgan X-XI asrlarda jonzotlarning laganda tasvirlanishi va bunday idishlarning Toshkent vohasi bo'ylab keng tarqalishi tegishli davrda ushbu hududda Islom juda ham ortodoks ko'rinishda bo'lmaganligidan darak bermoqda. Bunga o'xshash qush va uning tumshug'idagi gul tasviri xazar turklari idishlari sirtida ham uchratilgan [42]. Ikkala lagan ham somoniylar davrining nodir namunalardan hisoblanadi [43,378]. (14-rasm)

Manbalarda Iloq Markaziy Osiyo hududidagi o'ziga xos tog' va tog'oldi hududlariga va tekisliklarga ega bo'lgan o'lka sifatida arab sayyohlari esdaliklarida aytib o'tilgan. Jumladan, Ibn Xavqal “Kitob Surat al-ard” asarida “Farg'ona, ash-Shosh, Ushrushana va butun Movarounnahrda

qalin o'sgan daraxtlar, mo'l-ko'l mevalar, ketma-ket yaylovlar shunchalik (ko'p)ki, unga o'xshashi boshqa birorta mamlakatda yo'q"-deya e'tirof etadi [3,29]. Yana bir arab muarrixii Yoqut al-Hamaviy (XIII-asr) "Iloq – Alloh tomonidan yaratilgan eng yoqimli o'lkalardan biri"-deya ta'rif berib, uning bog'lari, ekinzorlari va shudgorlari butun Ohangaron vodiysini qoplab turishi haqida ma'lumot beradi [44]. Iloq hududida bog'dorchilik qadimdan rivojlangan soha bo'lib, uning Buyuk Ipak yo'lida meva savdosi va ayriboshlashi rivojida katta xissa qo'shgan o'lka hisoblanadi.

Ohangaron vodiysining o'rta asrlar davri bog'dorchiligini o'rganishda arxeologik qazuv ishlarida qayd etilgan xo'jalik o'ralarida saqlanib qolgan uzum (lot. *Vitis vinifera*), olma (lot. *Mālus*), olmurut (lot. *Pyros communis*), o'rik (lot. *Prūnus armeniāca*), qovun (lot. *Cucumis melo*), pista (lot. *Pistācia*), shaftoli (lot. *persicus*), na'matak (lot. *Rōsa*), gilos (lot. *Prūnus āvium*), jiyda (lot. *Elaeagnus*) kabi mevalarning urug'lari arxeobotanik ashyoviy manba vazifasini o'tab beradi.

Uzum – qadimgi dunyo bog'dorchiligining mumtoz mevalaridan xisoblanib, uning eng katta uchta turi hozirda butun dunyoga tarqalgan. Uning yovvoyi ajdodi (*Vitis vinifera* ssp. *sylvestris*) xisoblanadi [45,511-519]. Uzum o'simligi Markaziy Osiyoda keng tarqalgan bo'lib, uning yovvoyi navlari Farg'ona va turklar mamlakati orasidagi tog'larda ko'p uchrashi xususida arab muarrixii Ibn Xavqal ma'lumot berib o'tadi [3,29]. Suyurlitepa yodgorligidan aniqlangan uzum mevasi urug'lari ham aynan uzumning yovvoyi turiga oid bo'lishi mumkinligini inobatga olish lozim. (15-rasm)

Suyurlitepa yodgorligida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar jarayonida aniqlangan meva urug'lari, bog'dorchilik pichog'i bu hududda o'rta asrlarda bog'dorchilik yuksak darajada rivojlanganligini ko'rsatib beradi. Yodgorlik hududida olib borilgan qazishmaning janubiy-g'arbiy qismida qazish ishlari vaqtida mahalliy tilda "bog'bon pichog'i" (ko'chatlarga ishlov beruvchi) deb ataluvchi uchi qayrilgan va tig'i ichki tarafida bo'lgan pichoq aniqlandi. Pichoqning uzunligi 12 sm, eni 1,2 sm bo'lib, uch qismi biroz qayrilgan. Dastaga ulanadigan qismi biroz qalinlashib borgan. Dastaga kiritish qismi burama shaklida yasalgan bo'lib, dastaga mustahkam o'rnashib turishi maqsad qilingan. Ushbu pichoqqa o'xshash bog'bonlik pichog'i Panjikent va Eski Xovos yodgorliklarida xam aniqlangan [46,74; 47; 48,55; 49,381]. Shu kabi pichoqlarning yodgorlik hududidan aniqlanishi, ushbu hududda qadimda va o'rta asrlarda bog'dorchilik keng rivojlanganligidan dalolat berib turadi.

Suyurlitepadan topilgan "bog'bon pichog'i" yaxshi saqlangan. Pichoqning uch qismi biroz qayrilganligi undan foydalanishda itarish yoki bosish kuchi evaziga kesish amali bajarilmasdan, balki o'ziga tortish kuchi bilan bajariladi. Bu holatda mevali daraxtlarga payvand solish, novda po'stini artish va meva po'stini artish ishlarida aynan shunday pichoqlardan foydalanilgan. Shu kabi pichoqlar Markaziy Osiyo va Kavkaz hududlarida keng tarqalgan. (16-rasm)

Suyurlitepa kabi shaharlarning rivojlanishida bog'dorchilik, dehqonchilik va shu bilan birga, turli sohalarga ixtisoslashgan hunarmandchilik va savdo sohalarining o'rni katta bo'lgan. Bunday shaharlar atroflaridagi suvli hududlarda bog'dorchilik, dehqonchilik yuksak darajada rivojlangan. Arxeologik qazishma ishlari jarayonida aniqlangan topilmalar buning yaqqol dalili hisoblanadi.

Qazishma ishlari natijasida uch qator paxsa bloklardan qurilgan mahobatli (monumental) inshoot aniqlandi. Ushbu binoning me'moriy yechimiga ko'ra quyidagilar xulosa qilindi:

1. Vag'nze mulkiga tegishli bo'lgan mulkdor xonadon binosi. **Koridorli taroqsimon bino.** Shu kabi binolar mudofaa maqsadida qurilgan bo'lib odatda ikki qavatdan iborat bo'lgan. Birinchi qavat kazarma-ya'ni askar yoki qo'riqchilar uchun xonalar va mulkdor oilasiga tegishli xo'jalik mulkini saqlash vazifasini o'tagan [25,121]. Ikkinchi qavatda mulkdor va uning oilasi istiqomat qilgan.

2. Me'morchilik uslubiga ko'ra shu kabi qurilgan **ko'p xonali binolar** naus sifatida ham foydalanilgan. Bir tomondan binoning turli qismlariga o'zgartirish kiritilganligi uning dastlabki funksiyasi boshqa bo'lganligini ham bildirib turadi.

Shaharning ichki yo'llarini aniqlash maqsadida 7 ta nuqtada transheyalar[59] tashlandi va shaharning ba'zi ichki yo'llarining o'rniga aniqlik kiritildi. Transheyalardan 5 tasi yodgorlikning shimoli-sharqiy tomonidan qazildi. Natijada shimoli-sharqiy tomondagi ichki yo'llardan biri ma'lum bo'ldi. Ushbu shaharga kirish magistral yo'li 50-60 m. lar chamasi shaharga kirgach, ikkiga bo'linadi. Biri g'arbga tomon davom etadi, ikkinchisi esa janubga tomon ketgan. Xuddi shu joyda, yo'lning shimol tomonida bosh darvoza posbonining burji joylashgan bo'lsa kerak, deb faraz qilindi. Bu

joydagi burjning o'rni baland do'nglik sifatida saqlangan. Keyingi tadqiqotlar ushbu do'nglik o'rnida ham arxeologik qazishma ishlari olib borilishini taqazo etadi. Ikkiga bo'lingan yo'llarning kengligi 6 m. dan kam emas. Ularga tosh yotqizilgan bo'lib, bu ma'lumot qazishmalar davomida isbotlandi. G'arbiy yo'l ko'xandizning shimolidan o'tib, ko'xandizning shimoli-g'arbiy burchagi orqali Uzunsoy tomon ketgan.

Shaharga kirgan magistral yo'lining janubiy yo'nalishi sharqiy shahriston ichkarisiga kirgach, yana ikki tarmoqqa bo'linadi. Uning bir tarmog'i ko'xandizning janubi-sharqiy burjidan 50 m. lar chamasi sharqda qad ko'targan aylana shaklidagi tepalikni aylanib o'tib, g'arbga tomon yo'nalib, ko'xandiz janubiy mudofaa devorining qoq o'rtasini kesib, uning ichiga kirib borgan. Ko'xandizga kirish darvozasi ro'parasida oval shaklida tepalik joylashgan. Bu ko'xandizga kirish darvozasi oldidagi qorovulxona o'rni bo'lsa ajab emas. Janubiy shahristonga kirish darvozasi ham aynan shu joyda kuzatiladi.

Arkning janubi-sharqiy tomonidagi maydonda 1X14 metr o'lchamda transheya tashlandi. Natijada arkning janubi-sharqida o'rtacha kattalikdagi ariq, suv yo'lining o'rni aniqlandi. Suv yo'llarining izlari butun yodgorlik maydonining relyefida aniq ko'zga tashlanadi. Suyurlitepaning topografik xaritasidan kuzatish mumkinki, janubiy qismlar shimoliy tomonga qaraganda balandda joylashgan. Janubdagi Ovjazsoydan keltirilgan suv shahar arkining janubi sharqiy qismidan kirib kelib, uning janubi orqali aylanib o'tib, ibodatxona mulki tomonga yo'naladi.

Ko'xandizdan g'arbdagi keng maydonni g'arbiy shahriston egallagan. Uning g'arbiy tomoni ochiq, Uzunsoy bilan chegaralangan, shimoliy tomonidan esa ushbu soy tomon ketgan keng yo'l bilan chegaralangan. Uning janubiy tomoni esa janubiy shahriston mudofaa chizig'iga borib taqaladi.

O'rta asr shaharlarida hamma tomondan mudofaa devorlari bilan o'rab olinib, devor ortida xandaq qaziladi. Lekin Suyurlitepa o'rnidagi shahar hamma tomondan mudofaa devorlari bilan o'ralmagan. Mudofaa devor izlari uning janubiy tomonida ko'zga tashlanadi. Fikrimizcha, ushbu shaharning g'arbiy va sharqiy tomonlarida mudofaa devori uchun ehtiyoj sezilmagan. Chunki, ikkala tomondan chuqur soy oqib o'tgan: Uzunsoy va Ovjazsoy. Qolaversa, shahar tabiiy baland adirlik ustiga qurilgan. (17-rasm)

Arkdan janubda tomon chamasi 600 metrlar yurilsa, boshqa tepaliklardan ajralib turadigan tepalik maydonga duch kelinadi. 2022-yilda tadqiqotlarimiz davomida ushbu hududda ham qazishmalar amalga oshirildi. Qiziq jihati shundaki, mazkur joyda yerni 30 sm chuqurlikda qazilsa, yarim yerto'la shakllaridagi uy-joylari mavjud bo'lgan madaniy qatlamga tushiladi. Ushbu makonlardan sopol idishlar, metal buyumlar, yorg'uchoqlar va boshqalar uchratildi. Sopollarning ayrimlariga qora rang bilan naqshlar va rasmlar chizilgan. Bunday sopol idish va yarim yerto'la shaklidagi turar joylar Burganli madaniyati vakillariga xos bo'lib, bu madaniyat Ohangaronning o'rta oqimi hududida, ayniqsa, keng tarqalgan [50,19]. Nafaqat Ohangaron havzasi, balki, butun Toshkent vohasida shaharlarning paydo bo'lishi Burganli madaniyati dehqonlari va hunarmandlari yaratgan iqtisodiy va madaniy asos bilan bog'liq [51,215]. Bu shuni anglatadiki, Suyurlitepa shahrining asoschilari chorvador emas, balki, dehqonchilik bilan shug'ullangan qabilalar bo'lishgan. Rivojlangan o'rta asrlarga kelganda yodgorlikning janubiy qismida odam yashamagan. Yarim yerto'lalarda yashagan aholi shimolga tomon siljigan. Bu siljish janubda suv manbalarining qurib borishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Chunki, shimolda juda ham yirik, bugungi kunda aholi Qorabuloq deb ataydigan buloq mavjud bo'lgan. Ular nisbatan pastroq hududga, ya'ni shimol tomonga ko'chishgan. (18-rasm)

Tadqiqotlar yakuniga ko'ra, yodgorlikni shartni ravishda 2 qismga bo'lish mumkin: to'liq shakllangan shahar va shaharga asos solinguncha aholi yashagan qishloq makonlari maydoni. Yodgorlikning rivojlangan o'rta asrlarda shahar ko'rinishiga ega bo'lgan shimol tomonidagi qismi google earth dasturi hisobida taxminiy 40 gektarga yaqin maydonni tashkil etadi, uning relyefida shaharning tarkibiy qismlari yaqqol ko'rinishga ega bo'lib turadi. Demak, X asrda yozilgan arab tilidagi yozma manbalarga tayanadigan bo'lsak, Suyurlitepa o'rnidagi shaharning maydoni kichik shaharlar safiga kiradi.

O'rta asr tarixchi sayyohlarining yozishlaricha, Iloq shaharlari ichida eng yirigi Tunkat bo'lgan. Tunkatning hududi Chochning markazi Binkatning yarmidan ham kichikroq bo'lgan [3,74].

Tunkat deb atalayotgan yodgorlikda esa shaharning asosiy elementlari hisoblangan yuqoridagi belgilar yaqqol ko'zga tashlanmaydi. Akademik Buryakov esa o'z fikrini ark va boshqa qismlar buzilib ketgan degan sabab bilan izohlashga harakat qiladi [16,65]. Bu sabablarni esa B. Isabekov asos sifatida qabul qilmaydi va Suyurlitepa aynan Iloqning poytaxti degan fikrni ilgari suradi [16,99]. (19-rasm)

Akademik A. Asqarov boshchiligidagi arxeologik ekspeditsiya Tunkat deb atalayotgan shaharda 2012 yilda qazishmalar olib borib, metall eritish pechlaridan birini shogirdlari bilan birgalikda ochib o'rganadi [52,72-79]. A. Asqarovgacha Y. Buryakov ham bu yerdan juda ko'p metal eritish pechlari va tonnalab metal qotmalarini aniqlagan bo'lib [53,76], bu faktlar asosida A. Asqarov bu shaharni metallurglar shaharchasi deb atab, hozirgi O'zbekiston metallurgiyasining yuragi hisoblangan shaharlardan biri Olmaliq shahri bilan qiyoslaydi. (20-rasm) Shuningdek, manbalarda Shoshning markaziy shahri Binkatdan Tunkat shahrigacha bo'lgan masofa 8 farsax ekanligi, qolaversa, Tunkat qoyali tog' ustida joylashganligi yoziladi [3,400]. Google earth dasturidagi hisob kitoblarda Toshkent shahri hududidagi Mingo'rik yodgorligidan Obiz qishlog'idagi Tunkat yodgorligigacha bo'lgan masofa 68,025 km. ni tashkil qiladi. O'rta asr O'rta Osiyo o'lchovlariga ko'ra 1 farsax 8534, 25 m. ga to'g'ri kelishini hisobga olsak, $8 \times 8534,25 \text{ m} = 68272 \text{ m}$. ni tashkil qiladi. Lekin o'rta asr sayohatchilari yurgan yo'llarini qadamda o'lchashganligini hisobga olsak, bu raqamlarda tafovut kelib chiqishi mumkin. Yana bir jihati, Tunkat nisbatan ancha tekis hududda joylashgan. Suyurlitepa esa manbalarda ta'riflangan qoya ustiga joylashgan degan ta'rifga to'g'ri keladi. (21-rasm)

Lekin muallif oxirgi vaqtlardagi kuzatishlari asosida Y.F. Buryakovning Iloqning poytaxti Tunkat Obiz qishlog'i xarobalari o'rnida ekanligi haqidagi fikrlariga qo'shiladi. Chunki birinchidan, hudud jihatidan Obiz qo'rg'onidagi Tunkat deb atalayotgan shahar yodgorligi qadimiy Tunkatning maydoniga mos tushadi. Chunki, hudud jihatdan Ohangaron hududidagi shahar tipidagi yodgorliklar ichida eng yirigidir. Bundan tashqari arab geograflarining manbalarida takidlanishicha, Iloq shaharlarining ichida eng yirigi Tunkat, qolganlari esa deyarli hammasining hududi bir xil kattalikka ega [3,400].

Iloq turklar chegarasida joylashgan, uning bosh shaxri Binkatdan 10 farsax masofada joylashgan. Uning chegarasidan Navbaxt orqali Fargonaga o'tilgan. U juda chiroyli va toza shahar bulgan, uning sug'oriladigan ekinzorlari eniga 2 farsax masofaga yetgan [5]. Qolaversa, hozirgacha Tunkat deb taxmin qilinayotgan yodgorlik hududida arxeologik materiallar juda ko'p, qolgan shahar yodgorliklarida bunaqa boy ashyolarni uchratmaysiz. Yodgorlikning Google earth dasturi orqali aniqlangan taxminiy hududlari 200 gektarga yaqinni tashkil etadi. Lekin Tunkatning atrofida bugungi kunda ko'plab uy-joylar qurilgan va uning katta qismi buzilib ketgan yoki zamonaviy ishbilarmon, fermerlar tomonidan tadbirkorlik maqsadida foydalanilib, yodgorlikka ziyon yetkazilgan. Bundan ko'rinadiki, Tunkatning o'rnini hozirgi hisob-kitoblardan ko'ra yirikroq bo'lishi mumkin. (22-rasm)

Fikrimizcha, Suyurlitepa yodgorligining o'rnida manbalarda Namudliq yoki Yahudliq nomi bilan atalgan shahar mavjud bo'lgan. Hudud ul Olamda Yahudliq shahri Iloq bilan Farg'ona chegarasida joylashgan deb ta'riflangan bo'lib, bizning bu chegarada olib borgan qidiruv ishlarimiz Suyurlitepaning Farg'onadan Iloq hududiga o'tish yo'lidagi birinchi chegara shahar bo'lganligini tasdiqladi. Biz qidiruv ishlari davomida Suyurlitepadan taxminan 3 km uzoqlikda joylashgan Kandirsoydan tog'lar orasi bo'ylab hozirgi Tojikiston Respublikasi hududi orqali Farg'ona vodiysiga eng yaqin yo'l bilan o'tish mumkin bo'lgan dovon izlarini o'rgandik (Qamchiq dovoni orqali boriladigan yo'lni taxminan, 137 km ga qisqartirish mumkin). Qo'shrabot qishlog'ida aholidan olingan so'rov natijalariga ko'ra, qo'shrabotliklar o'z uylaridan qoraxoniylar hamda somoniylar davriga oid bo'lgan idishlar, shuningdek pishgan g'isht qoldiqlarini topishganliklarini aytishdi va biz o'zimiz ham bu ashyolarni o'z ko'zimiz bilan ko'rishga muvaffaq bo'ldik. Qolaversa Kandir dovoni ichidagi qishloq nomi toponimining o'zi ham bu hududlar bir paytlar karvon yo'li bo'lganligidan darak beradi. Qo'sh "ikki" va rabot "karvonsaroy", "savdogar va musofirlar to'xtab dam oladigan joy" ma'nosini anglatadi. Demak, Qo'shrabotda bir paytlar ikkita rabotlar yoki ko'plab qo'sh rabotlar mavjud bo'lgan. Kandir dovonidan bir vaqtlar temuriylar sulolasining mashhur vakillaridan Zahiriddin Muhammad Bobur Toshkentga amakisining yoniga kelishda va qaytishda foydalangan

[6,47]. Chunki, Farg'ona vodiysiga Kandir dovonidan borilsa, ot-arava va boshqa ulovlarda osongina o'tish mumkin. (23-rasm)

Tunkatdan sharqda joylashgan shaharlardan biri yozma manbalarda Namudlig' deb atalgan. Shahar nomidanoq Namudlig'ning paydo bo'lishini olimlar chorvador turklarning o'troqlashuvi bilan bog'lashadi. Ushbu shaharning o'zni Yu. Buryakov tomonidan Angren shahrining shimoliy chekkasidagi Nomsiz tepa yodgorligi bilan tenglashtirilgan [19,127]. Lekin bu joylashuv 10 asr arab manbalariga zid keladi. Chunki, Namudliq shahri ash-Shosh va Iloq daryolari orasida joylashgan deb yozilgan. Ash-Shosh bu Sirdaryoning eski nomi, Iloq esa Ohangaron daryosi. Angren esa Chirchiq (Turk) va Ohangaron daryolari orasida joylashgan. Bu ma'lumot akademik Yu. Buryakov ushbu o'rinda xatoga yo'l qo'yganligini ko'rsatadi. (24-rasm) Xuddi shu manbalarda Suyurlitepa yodgorligi Namudliq ekanligini rad etuvchi ma'lumotlar ham mavjud: "Namudliq Tunkatdan 5 farsax g'arbda joylashgan"[3,254]. Lekin bugungi kunda ham o'rta asrlardagi tarixiy nomini saqlagan yana bir shahar Obliq (manbada Abriq) ham Tunkatdan sharqda joylashgan bo'lib, uni ham manbada g'arbda deyilgan. Aslida Abriq (Obliq) Tunkatning sharqida joylashgan. Unda Tunkatning o'zni masalasida Yu. Buryakov adashgan, yoki o'rta asr sayyohlari sharq-g'arb masalasida adashgan. Ushbu ma'lumotlar ancha vaqtlardan buyon ushbu shaharlarning tarixiy o'zni masalasida tadqiqot qilayotgan olimlarni chalkashtirib kelmoqda [8,39].

Iloq shaharlarining hududiy kengligini Yu. Buryakov asarlari asosida solishtirar ekanmiz. Manbalarda yozilgan shaharlar maydoni bo'yicha eng katta deyilgani Obiz qo'rg'onidagi shahar xarobasiga to'g'ri keladi. Tunkatdan boshqa hamma shaharlar deyarli teng deb tariflanadi.

Suyurlitepaning hududi ham 40 gektarni tashkil etib, bu qolgan shaharlar bilan deyarli teng deganidir.

Suyurlitepani B. Isabekov aytganidek, Tunkat deb faraz qilsak, unda Obiz qo'rg'onidagi shahar xarobasining o'rta asrlardagi nomi qanday bo'lgan?

Iloqning poytaxti masalasida akademik Yu. F. Buryakov adashmagan, Tunkatning o'zni Obiz qishlog'ida joylashgan bo'lishi mumkin.

Bunday xulosalarga kelishimizga sabablar quyidagilar:

-birinchidan, Manbalarda Tunkatdan Yahudliqqacha bo'lgan masofa 5 farsahni tashkil etadi deb qayd etilgan. Biz Yahudlik deb atayotgan Suyurlitepa yodgorligi Tunkatning o'rnidan 20 km uzoqlikda joylashgan. Bir farsah 5544 metr ekanligini hisobga olsak, 20 km o'rta asrlar o'lchovi bo'yicha 4 farsah masofani tashkil etadi. O'z davrida bu arab sayohatchilari qadamlar bilan taxminiylar masofa o'lchaganligi bu masofani chigallashtiradi, hozirgi kunda qadamlab o'lchansa 5 farsah masofaga to'g'ri kelishi mumkin;

-ikkinchidan, "Hudud ul-olam", Ahsan attaqosim fi ma'rifat alaqolim" ("Iqlimlarni o'rganish uchun eng yaxshi qo'llanma") kabi manbalarda, Farg'ona va Iloq chegarasida Yahudliq nomli shahar bo'lganligi yozilgan va Suyurlitepa aynan Farg'ona va hozirgi Ohangaron (Iloq) chegarasida joylashgan;

-uchinchidan, Yahudliq shahrini X asrda yurtimizga sayohat qilgan sayohatchilarning asarlarida ash-Shosh (Sirdaryo) va Iloq (Ohangaron) daryolari orasida joylashganligini yozib qoldirishgan. Bu geograf sayohatchilar yurtimizga janubi-g'arb tomondan kirib kelishganini hisobga olsak, ular Yahudliq shahriga borish uchun shimoli-sharq tomonga harakat qilishlariga to'g'ri keladi. Yo'lda Sirdaryoga duch kelingandan so'ng, yana shimoli-sharq tomon yurilsa Ohangaron daryosining o'rta oqimiga borish mumkin. O'rta oqimida esa biz yuqorida sanayotgan Tunkat va Yahudliq kabi shaharlar joylashgan. Bu shaharning Yahudliq deb nomlanishiga sabab, bu yerda yahudiylar jamoasi yashagan bo'lishi mumkin [3,255].

-to'rtinchidan, "The bukharian and mountain jews in the whirlpool of history" kitobida [54,16], shuningdek, yahudiylarning ensiklopediyasida ham yahudiylarning tarixan keng hududlarda yashab kelganligi, X-XII asrlar oralig'ida Farg'ona va Toshkent vohasi chegarasida ular istiqomat qilishganligini, va ular istiqomat qilgan hudud ularning nomi bilan Yahudliq deb atalishi haqida gap boradi [55,1149];

-beshinchidan, biz joriy yilda Suyurlitepaning eng shimoliy qismidagi tepalikning janubi-sharqidan qazishma ishlarini boshladik va bu yerdagi qazishmalarimiz davomida ochilgan inshoot bir

necha arkali qilib qurilganligining guvohi bo'ldik. Yahudiy xalqining uy joy, sinagoga (ibodatxona) va boshqa arxitekturasidan ma'lumki, ularda arkali detallar ustunlik qiladi.


-oltinchidan, bu yerda yahudiylar jamoasi istiqomat qilganligini isbotlovchi yana bir ashyolar topildi. Bular sopol dasturxon va tosh bo'laklari bo'lib, ularning tag qismida pentagramma (besh qirrali yulduz) tasvirlangan. Bu belgi uzoq vaqt davomida yahudiylar jamoasining ramzi hisoblangan. XVII asrdan so'ng esa, 6 qirrali yulduz yahudiylarning asosiy belgisiga aylandi [56] va uni bu xalqqa tegishli ko'plab buyumlar hamda boshqa artefaktlarda uchratish mumkin;

-yettinchidan, qazishma maydonining shimoli-sharqiy tomonidagi xona ichidagi yirik o'choqning ust qismidan qandaydir metal idishning tutqich qismi chiqdi. Bunday idishlar hazar qabilalarida mavjud bo'lgan [57,384]. Manbalarga ko'ra esa, hazarlar yahudiy diniga e'tiqod qilishgan. Shunga asoslanib o'z davrida bu shahar yahudiylar yashagan shahar Yahudliq deb atalgan bo'lishi mumkin.

Bunga yanada aniqlik kiritish uchun Xitoy manbalariga murojaat qilish kerak. Chunki, Farg'ona vodiysi ma'lum bir muddat Tan sulolasining ta'sirida bo'lgan va o'sha vaqtda markaziy shahar Tunkat bo'lgan. Bundan kelib chiqadiki, Xitoy sayyohlari, albatta, Iloq shaharlariga tashrif buyurishgan va bu shaharlarni tasvirlashgan. Keyingi tadqiqotlar bu xususda Xitoy manbalarini o'rganishni taqazo etadi.

Keling, Yu. Buryakov Namudliq va Tunkat shaharlari lokalizatsiyasi masalasida adashmagan deb hisoblaymiz. Unda Suyurlitepa o'rnida qaysi shahar bo'lgan?

Manbalarda Tunkatdan g'arbga qarab 5 farsax uzunlikda Yahudlig' (manbalarda Farg'ona bilan Iloq chegarasidagi shaharcha deb ta'riflangan), Itlig', Abirliq' va Alaxjas degan shaharlar bor deb keltirilgan. Bugungi kunda Suyurlitepa joylashgan hududdan Ovjaz nomi bilan ataladigan soy oqib o'tganligini isbotlovchi soyning izlari saqlanib qolgan. Bundan 40-50 yil avval ham Suyurlitepa joylashgan hududlar Ovjaz qishlog'iga tegishli bo'lib, umumiy Ovjaz deyilgan. Abirliq shahri hozirgi kunda ham Obliq qo'rg'oni shaklida o'z nomini saqlab qolganidek, Alaxjas shahrining nomi ham ozgina fonetik o'zgarishga uchrab, Avjas shahrida hozirga qadar saqlanib kelyotgan bo'lishi mumkin. Qolaversa, ushbu shahar ham manbalarda Farg'ona va Iloq chegarasida joylashgan deb ta'riflanadi.



1-rasm. Ohangaron havzasida joylashgan yodgorliklar xaritasi.

4. Xulosalar:


Xulosa, qilib aytish mumkinki, Suyurlitepa o'rnida Alaxjas, Alxajas, Alxanjos shahri joylashgan. Boshqa manbalarda (Muallifi noma'lum "Xudud ul-olam", Ibn Havqalning "Kitob suratal-ard" hamda Al-Baqriyning "Kitob al-masalik, val-mamalik") ham Suyurlitepani Alaxjas deb atalishiga ishoralar mavjud. XIII asr boshlarida Chingizxon qo'shinlari tomonidan Ohangaron vodiysining qator katta-kichiq shahar va qishloqlari qatorida Alaxjas shahri ham vayron etilib, oddiy tepalikka aylangan. Buni shahar xarobalarining ustki qatlamlarida aniqlangan mo'g'ullar davriga oid kamon o'qining uchi ham isbotlab turibdi. XVI asr boshlarida bu zaminga kirib kelgan ko'chmanchi Shayboniy o'zbeklari mahalliy aholi bilan qorishib, Ohangaron vodiysida qurama nomi ostida yangi etnik qatlam shakllanadi. Ana shu quramalar qadimgi Alaxjas shahrining tarixiy nomini Avjas, uning xarobalarini Suyurlitepa deb atay boshlagan bo'lsalar ajab emas.



2-rasm. Qadimiy Kandir dovonida olib borilgan qidiruv-tadqiqot ishidan lavha.




3-rasm. Suyurlitepa ibodatxonasida olib borilgan qazishma jarayoni.



4-rasm. Suyurlitepa arkiga tashlangan stratigrafik transheya.



5-rasm. Suyritepa (“Baland tepalik”)



6-rasm. 2022 yilgi qazishmalar natijasida aniqlangan mudofaa inshootining rejasi va kesmasi



7-rasm. VII-VIII asrlarga oid Choch tangasi




8-rasm. Tag qismida pentagramma tasvirlangan sopol dasturxon.



9-rasm. Usmonlilar imperiyasining bayrogʻi.



10-rasm. Miloddan avvalgi V-IV asrlarga oid idish parchasiga tushirilgan pentagramma tasviri.



11-rasm. Suyurlitepa yodgorligidan topilgan shisha idishlar namunalari.



12-rasm. Old tomonida +, orqa tomonida yulduz tasviri aks etgan tosh predmet.




13-rasm. Reversida xochga o'xshash tasviri bor bo'lgan noma'lum Choch hukmdoriga tegishli VII-VIII asrlarga oid tanga.



14-rasm. O'ralardan biridan topilgan Somoniylar sulolasi boshqaruvi davriga oid sirlangan idishlar.




15-rasm. Suyurlitepa yodgorligidan topilgan gilos va uzum danaklari.



17-rasm. Suyurlitepa yodgorligining topografik rejasi.




18-rasm. Suyurlitepa aholisining shimol tomon siljishi.




19-rasm. Y.F. Buryakov bo'yicha Tunkat xaritasi




20-rasm. Akademiklar Y.F. Buryakov va A.Asqarovlar boshliq arxeologik guruhlar tomonidan Tunkat yodgorligida olib borilgan qazishma ishlaridan lavhalar.



21-rasm. Tunkat va Suyurlitepa yodgorligining joylashgan o‘rnini ko‘rsatuvchi suratlar (“Google earth” dasturi)



22-rasm. Tunkat yodgorligida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar xaritasi.



23-rasm. Qadimiy Kandir dovoni orqali oʻtadigan yoʻlning “Google earth” dasturi orqali samodan olingan koʻrinishi.



24-rasm. Eloqning tarixiy xaritasi

Iqtiboslar/ Сноски/ References:

1. Худуд ул-олам/ [Таржимон О. Бўриев, масъул муҳаррир М. Исҳоқов]. – Т.: О‘zbekiston, 2008. 64 бет;

2. Истахрий «Китаб ал-масалик вал-мамалик» (Хуросон ва Мовароуннахр), Тадқиқот, араб тилидан таржима, изоҳ ва кўрсаткичлар муаллифи Р. Т. Худайберганов; «Фан» нашриёти, Тошкент–2019. 478 бет;
3. Ибн Хавқал. Китоб Суратал-ард. Араб тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи т.ф.д. Ш.С. Камолиддин. Тошкент. 2011. 400 б.
4. Ибн Хордадбех. Книга путей и стран(пер. Н. М. Велихановой). М. 1986, — 428 с.
5. З.И. Алимов. Араб тилидаги манбаларда Тошкент воҳаси тарихий географияси (IX-XIII асрлар). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. 40 бет.
6. Z.M. Bobur. Boburnoma. Toshkent: O‘qituvchi, 2008, 288 бет.
7. Буряков Ю.Ф. Историческая топография Ташкентского оазиса. – Ташкент: Фан, 1975. – 204 С.
8. М.Е. Массон. Ахангеран. Археолого-топографический очерк. // Ташкент: 1953. 73-бет. 146 с.
9. Тошкент воҳаси археологияси. – Тошкент-Самарканд, МИЦАИ. 2008.
10. С. Аширов. Потерянная столица государства Илак// “Правда Востока” gazetasi, 20. VII. 2007, – №140.);
11. Аширов С.А. К локализации Тунката – столицы Илака // Проблемы древней и средневековой истории Чача. Шамсиддин Камолиддин (ред.). Lambert Academic Publishing. – Saarbrücken 2013. – С. 355-362.
12. Аскарлов А.А., Исабеков Б.К. В вопросу о локализации столицы средневекового владения Илак // Проблемы древней и средневековой истории Чача / Ред. Ш.Камолиддин. – Saarbrücken, 2013. – С. 345-353.
13. Мунира Хатамова. Узбекистон шаҳарлари VI - VIII асрларда (Чоч воҳаси мисолида). - Тошкент: Yangi nashr, 2017. - 243 б.
14. Babayarov G. Chach tarixidan lavhalar. Tashkent, 2010. 168 bet.
15. И. Ёрматов. Оҳангарон водийси жой номларининг изоҳли луғати. Тошкент. “Наврўз” нашриёти. 2016. 172 бет.
16. Б. Исабеков. Юқори ва ўрта Оҳангарон водийсининг қадимги ва ўрта асрлар даври маданияти. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган Диссертация. 2022. 156 бет.
17. А. Аскарлов, Х. Матякубов, Д. Нормуродов, Б. Исабеков, У. Исмаилов//Суюрлителипа ёдгорлигида олиб борилган археологик қазилмалар. Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар. № 13, 2020 йил. 15-41-бетлар.
18. Буряков Ю.Ф и др. Археологические памятники Ташкентской области. –Т.: “Фан”. 1973. С. 90.,
19. Буряков Ю.Ф. Историческая топография древних городов Ташкентского оазиса. –Т.: “Фан”. 1975. С. 114-115.
20. Тошкент атрофлари бўйлаб. Тошкент бош плани лойиҳалаш ва илмий тадқиқот институти. –Т.: 2012. 48 б.
21. Буряков Ю.Ф. Генезис и этапы развития городской культуры ташкентского оазиса. –Т.: “Фан”. 1982. - 212 с
22. Древняя и средневековая культура Чача. (коллективная монография) Издательство ФАН Узбекской ССР. Ташкент-1979, - 183 С.
23. Древний и средневековый город Восточного Мавераннахра. Шарухия I-XVIII вв. н.э. (коллективная монография). Ташкент: «Фан». 1990. 128 с.
24. Исаков А.И. Цитадель древнего Пенджикента. Душанбе, 1977, 202 с.
25. Хмельницкий С.Г. Между кушанами и арабами: Архитектура Средней Азии VI-VIII вв. Берлин-Рига. GamaJun. – 290 С.
26. М.И. Филианович. Древняя и средневековая история Ташкента в археологических источниках. Tashkent: Фан Узбекистан, 2010, - 311 С.

27. Нурулин Т.С. Виртуальная реконструкция замка Актепа Юнусабад // Архитектура и строительство Узбекистана. - Ташкент, 2021. - N2-3. - С. 24-31.
28. Филанович М.И. Ташкент. Зарождение и развитие города и городской культуры. Ташкент: Издательство "Фан" Узбекской ССР. 1983. – 232 С .
29. Д. Нормуродов. Тошкент воҳасининг қадимги ва ўрта асрлар даври моддий маданияти тарихи (милоддан аввалги XIII – милодий XIII аср бошлари). Тарих фани бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. Тошкент 2019. 194 бет.
30. Байпаков К.М., Ерзакович Л.Б. Керамика средневекового Отрара. – Алма-Ата: 8нер, – 212 с;
31. Толстой Н.И. Перевоорачивание предметов в славянском погребальном обряде // Исследования в области балто-славянской духовной культуры: Погребальный обряд. – М., 1990. – С. 119-128;
32. Сагалаев А.М., Октябрьская И.В. Традиционное мировоззрение тюрков Южной Сибири. – Новосибирск: Наука, сиб. отд., – 209 с.
33. Л.Ф. Соколовская. Неглазурованная керамика средневекового Самарканда, как фактор экономики городского ремесла (по материалам городища Афрасияб кон.VII нач.XIII вв). Диссертация соискание ученой степени кандидата исторических наук. Ташкент 1995.
34. Отахўжаев А. Илк ўрта асрлар Марказий Осиё цивилизациясида турк-суғд муносабатлари. Монография. – Т.: ART-FLEX, 2010, 220 бет.
35. <https://classroom.synonym.com/the-difference-between-the-star-of-david-and-a-pentagram-12083533.html>
36. <https://freemasonry.bcy.ca/anti-masonry/pentagram.html>
37. <https://mythologian.net/pentacle-symbol-meaning-history-origins-pentacle-vs-pentagram/>
38. <https://www.learnreligions.com/pentagrams-4123031>
39. <https://m-eng.ru/uz/vodostochnaya-sistema/tatuirovka-pentagramma-pyatikonechnaya-zvezda-taina-simvolov-pentagramma---eto.html>
40. R. Patai. The Jewish Alchemists: A History and Source Book. Princeton University Press 1994. P 634.
41. Бабаяров Г. Заметки по истории нумизматики раннесредневекового Чача (III – VIII вв.) // Проблемы древней и средневековой истории Чача. / Под. ред. Ш. Камолиддин. Berlin: LAP Lambert Academic Publishing, 2013. С. 9-63.
42. Turk Dunyasi Kultur Atlasi : A Cultural Atlas of the Turkish World (Vol. 1; Selcuklu Donemi/ The Seljuk Period) Unknown Binding – International Edition, January 1, 1997
43. С. Р. Ильясова, Дж. Я. Ильясов, Р. А. Имамбердыев, Е. А. Исхакова. "Нет блага в богатстве...". Глазурованная керамика Ташкентского оазиса IX-XII веков. М.: Фонд Марджани, 2016. – 596 С.
44. Йакут Ал-Хамавий. “Китаб му’жам ал-Булдан”. Том 1. VII-XV вв. Арабские и персидские источники. М.-Л. АН СССР. 1939.
45. This P., Lacombe T., Thomas MR. Historical origins and genetic diversity of wine grapes//Trends in Genetics. Volume 22, issue 9, 2006, p 511-519.
46. Беленицкий А.М., Бентович И.Б., Большаков О.Г. Средневековый город Средней Азии. М., 1973. С 74, рис,43;
47. Грицина А.А. Древний Хавас на перекрестке дорог // Археология ва тарих фанининг долзарб муаммолари. 1 – қисм. Самарканд, 2005. С 7–15, Рис.8,1;
48. Грицина А.А., Рахимов К.А., Мамиров О.У. Кўҳна Ховос ёдгорлигида 2015-17 йилларда олиб борилган археологик тадқиқотлар // Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар 2015-2017 йиллар. 11-сон. Самарканд, 2018, 55-60-бетлар.
49. O. Mamirov. Gardening of Ustrushana in the Middle Ages (On Archaeological Materials) // Volume 5, Issue 9 September, 2022. p 381]
50. Дуке Х. Туябугузские поселения Бургулюкской культуры. Т.,1982. 93 С.
51. А. Асқаров. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. Тошкент: O‘zbekiston, 2015, 672 бет.

52. Б. Исабеков. Стольный город илака – Суйирлитепа. Theoretical & applied science. № 12 (56), Т 2017 С: 72-79.
53. Буряков Ю. Ф. Археологические материалы к истории Тункета и Абрлыга. Т.,1975. - стр. 136
54. R. Pinkhasov, S. Danilova. The bukharian and mountain jews in the whirlpool of history. New York, 2018. P 273 .
55. Encyclopedia of the Jewish Diaspora Origins, Experiences and Culture. Editor: M. Avrum Ehrlich. USA 2009. P 1356.
56. <https://www.britannica.com/topic/cross-religious-symbol>
57. Türk Dünyası Kültür Atlası - A Cultural Atlas of the Turkish World : Selçuklu Dönemi 1 - the Seljuk. 2017. 748 p.
58. Brovka - yodgorlikning madaniy qatlamlarini yaxshiroq kuzatish uchun qoldirilgan qism yoki kattaroq qazish joylari orasidagi tegilmagan yer maydoni.
59. Eni 1 m, uzunligi 5-14 m.lik chuqurlar, handaq

ЎТМИШГА НАЗАР

1 МАХСУС СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР 1

LOOK TO THE PAST
SPECIAL ISSUE 1

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000